

O'zbekistonda kasbiy kompetensiyalarni validatsiya va serifikatsiyadan o'tkazishni rivojlantirish Konsepsiysi loyihasi



R 29

Raximov, N.

O'zbekistonda kasbiy kompetensiyalarni validatsiya va sertifikatsiyadan o'tkazishni rivojlantirish konsepsiysi=Концепция развития валидации и сертификации профессиональных компетенций в Узбекистане [Matn]/ N. Raximov, Hans Schustereder. - Toshkent: Baktria Press, 2024. - 48 b.

Nashr ma'lumotlari

Nashrga tayyorlovchi

Deutsche Gesellschaft für
Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH
(Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati)
Bosh ofis Germaniyaning Bon va Eshborn
shaharlarida ro'yxatdan o'tgan.
"O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash – TexVET" loyihasi.
GIZning loyiha ofisi
O'zbekiston, Toshkent, Olmazor tumani, Sebzor ko'chasi, 313-uy.
www.giz.de

Sana¹

2022-yil dekabr

Design

TexVET loyihasi

Tayyorladi:

Nodir Raximov, Hans Schustereder

Ushbu konsepsiadagi fikr va tahlillar muallif(lar)ning javobgarligi asosida bo'llib, GIZ qarashlari va rasmiy siyosatini aks ettirmaydi.

Ushbu nashr Germaniya Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi (BMZ) nomidan Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ) GmbH (Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati) tomonidan amalga oshirilayotgan "O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash – TexVET" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan va nashr etilgan.

Muharrir: Z. Kudratov, Z. Isokova
Dizayn va kompyuter tayyorlovchi:

Nashriyot tasdiqnomasi №9183-7961

Bosishga 2024-y 06 03 ruxsat etildi.
Bichimi: 60x90/1/16. "Arial" garniturasi.
Sharqli bosma tabog'i: 60. Adadi 150 nusxa.
Buyurtma №130

Nashriyotuvi "Baktria press"
100000. Toshkent, Buyuklpaq Yuli mavzesi 15-25.
Tel.: +998 (71) 233-23-84
e-mail: baktriapress@gmail.com

"SABRPRINT" MChJ bosmaxonasida chop etildi
Adres: Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Do'stobod MFY, Parkent ko'chasi, 176
Tel.: +998 (95) 142-32-62

ISBN 978-9910-9111-3-2
© GIZ, 2024
© Baktria press, 2024

¹Konsepsiya 2022-yil 21-dekabrgacha bo'lgan holatni aks ettiradi.

Mundarija

MUQADDIMA	3
KIRISH	4
ASOSIY TUSHUNCHALAR	5
1-BOB: O'ZBEKISTON KASBIY KOMPETENSIYALARINING VALIDATSYA QILISH TIZIMI.....	7
Validatsiya tizimining yaratilishi va manfaatdor tomonlarning hissasi	7
Validatsiya uchun huquqiy baza va uning provayderlari.....	9
XULOSALAR	13
2-BOB: O'ZBEKISTON KASBIY KOMPETENSIALARINI BAHOLASH VA SERTIFIKATSIYA TIZIMI	15
Sertifikatsiya qoidalari va normativ-huquqiy hujjatlar	16
Ish beruvchining sertifikatsiya jarayonida ishtirok etishi	17
Davlat imtihonlarini tashkil etish va o'tkazish.	17
XULOSALAR.....	19
3-BOB: VALIDATSIYA VA SERTIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	21
4-BOB: VALIDATSIYA VA SERTIFIKATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI	22
Kasbiy kompetensiyalarni baholash uchun aniq ko'rsatmalar berish.....	22
Validatsiya va sertifikatsiya tartib-qoidalari to'g'risida manfaatdor tomonlarga ma'lumot berish	23
Baholovchilarga talablar, ularni tanlash va tayyorlash mexanizmlarini yaratish.....	24
Baholash usullari va tartiblari sifatini oshirish	25
Validatsiya va sertifikatsiya natijalarini hujjatlashtirish, baholash va monitoring qilish amaliyotini takomillashtirish.....	26
Validatsiya va sertifikatlashtirish uchun sifatni ta'minlash rasmii mexanizmlarini yaratish.....	27
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	28

MUQADDIMA

Konsepsiya loyihasi professional kompetensiyalarni tasdiqlash va sertifikatlash bo'yicha mavjud holatni hamda uning sifatini ta'minlash mexanizmlarini amalga oshirish usullarini tavsiflaydi.

Ushbu konsepsiya GIZning "O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash (TexVET)" loyihasi doirasida ishlab chiqilgan. Hujjat professional ta'lismi va kasbga o'qitish sohasida tasdiqlash (validatsiya) va sertifikatlashtirish jarayonlariga ta'sir etuvchi milliy va ilg'or tajribalarni o'rganish natijalarini o'z ichiga oladi.

Konsepsiyanı ishlab chiqishda xalqaro va milliy ekspertlar ishtirot etdi. Ishlab chiqish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni qamrab oldi:

- "O'zbekistonda Validatsiya va sertifikatlashtirish" tadqiqotini o'tkazish (2022-yil avgust-sentyabr). Tadqiqotda validatsiya va sertifikatlashtirishni rivojlantirish bosqichlari o'rganildi, qonunchilik bazasiga qisqacha to'xtalib o'tildi, mavjud yutuq va muammolar bayon qilindi, tavsiyalar ishlab chiqildi.
- TexVET loyihasining asosiy hamkorlarini "O'zbekistonda Validatsiya va sertifikatlashtirish" tadqiqotining natijalarini va kelgusi konsepsiyaning tuzilishi muhokama qilishga jalb qilish (2022-yil 21-sentabr).
- Xalqaro tajribani o'rganish va "Validatsiya va sertifikatlashtirish konsepsiysi" ning dastlabki versiyasini taqdim etish (2022-yil 28-noyabr).
- Konsepsiyaning yangilangan versiyasi bo'yicha manfaatdor tomonlardan rasmiy fikr-mulohazalarni olish (2022-yil dekabr).

Manfaatdor tomonlarni – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi, O'zbekiston, Mehnat bozori tadqiqotlari instituti, "O'zto'qimachiliksanoat" uyushmasi va boshqa tashkilotlarning ishtiroti konsepsiya loyihasini tayyorlashga muhim hissa qo'shdi.

Fursatdan foydalanib, ushbu hujjatni ishlab chiqishda ishtirot etgan barcha insonlarga hamda expertlarga NOVUM CONSULTING kompaniyasi direktori Hans Shustereder (Avstriya) va ta'lim bo'yicha maslahatchi Nodir Raximov (O'zbekiston)ga minnatdorchilik bildirmoqchiman.

GIZning "O'zbekiston kasb-hunar ta'limi tizimida islohot va modernizatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlash TexVET-TexVET" loyihasi ushbu yo'nalishdagi faoliyatini davom ettiradi.

Matthias Klingenberg,
TexVET loyihasi rahbari

KIRISH

2017-2020-yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar natijasida Milliy malaka ramkasi uchun asos yaratildi, bu esa natijalarga asoslangan ta'limga o'tish boshlanganligini ko'rsatadi.

Milliy malaka tizimi 8 darajadan iborat bo'lib, validatsiya va sertifikatsiya mexanizmlari orqali malakaga erishishning moslashuvchan yo'llarini ta'minlaydi, Ta'lim to'g'risidagi yangi qonun esa norasmiy va informal ta'lim kabi tushunchalarga ta'riflarni o'z ichiga oladi. Hayot davomida ta'lim olish ta'lim tizimining tamoyillaridan biri sifatida e'lon qilingan.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, validatsiya va sertifikatsiya mexanizmlari turli guruuhlar uchun muhimdir:

- erta tark etgan, ta'lim yoki ish jarayonida ko'nikmalari to'liq shakllanmagan va sertifikatga ega bo'lmagan yoshlar;
- Migrantlar va immigrantlar;
- Muayyan kasb bo'yicha ishlashni xohlaydigan, ammo kerakli malakaga ega bo'lmagan, faqat kerakli ko'nikma va tajribaga ega bo'lgan odamlar.

Yevropa davlatlari fuqarolarning harakatchanligini yaxshilash va ularga o'qishda o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun "ikkinchi imkoniyat" berish, shuningdek, barcha ijtimoiy nochor guruuhlar uchun teng imkoniyatlarni ilgari surish, ta'lim tizimi va mehnat bozorida tenglikni o'rnatish uchun validatsiyani amalda rivojlantirmoqda.

Norasmiy va informal ta'lim natijalarini validatsiya qilish ko'nikmalarini/malakalarni baholash va sertifikatlash bo'yicha umumiy tizimning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, validatsiyani umumiy baholash va sertifikatlashtirish tizimi doirasidan tashqarida ko'rib chiqish qiyin. Shuning uchun ham ushbu konsepsiya validatsiya va sertifikatsiya tizimini kasbiy ko'nikmalar/malakalarni baholashga qaratilgan o'zaro bog'langan qismlar sifatida ko'rib chiqadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, professional ko'nikmalarini validatsiya va sertifikatlash uchun milliy sifatni ta'minlash tizimlari uch darajada quriladi:

- Makro daraja – kasb-hunar ta'limi tizimining qonunchilik va me'yoriy-huquqiy normalari va tavsiyalari darajasi;
- Mezo daraja – kasb-hunar ta'limi muassasalari, kompaniyalar va imtihon komissiyalari kabi intstitutsiyalar. Ularda sertifikatlashtirish o'tkaziladi va makro darajadagi qoidalar amalga oshiriladi;
- Mikro daraja – bu yerda haqiqiy baholash (imtihon) o'qituvchilar, baholovchilar (imtihon oluvchilar) va korxonalardagi ustozlar tomonidan amalga oshiriladi².

Ushbu konsepsiyaning maqsadi sifatni ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish orqali kasbiy malakalarni validatsiya va sertifikatlashning haqqoniyligi, ishonchliligi, xolisligi va shaffofligini ta'minlashdan iborat.

²Cedefop (2015). Ensuring the quality of certification in vocational education and training. Luxembourg: Publications Office. Cedefop research paper; No 51 (p.25). <http://dx.doi.org/10.2801/25991>

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Ushbu konsepsiya quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniлади³:

Davlat akkreditatsiyasi — davlat ta'lim muassasalarini va tashkilotlari, shuningdek, nodavlat ta'lim tashkilotlari (bundan buyon matnda ta'lim tashkilotlari deb yuritiladi) faoliyatining davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablariga hamda o'quv dasturlariga muvofiqligining davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ularning bitiruvchilariga ma'lumot to'g'risidagi hujjatlarni topshirish huquqining taqdim etilishidan iborat jarayon.

Ta'lim tashkilotlari attestatsiyasi — ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholash, davlat ta'lim standartlari, davlat ta'lim talablari hamda o'quv dasturlariga muvofiq kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatini aniqlash bo'yicha davlat nazoratining asosiy shakli.

Norasmiy va norasmiy ta'lim natijalari validatsiyasi — bu shaxsning talab qilinadigan ta'lim natijalari yoki malakalariga qay darajada erishganligini aniqlash maqsadida shaxsning norasmiy va informal o'rGANISHI baholash jarayoni (UNEVOC).

Baholash dalillari — bu shaxs yoki guruhning malakali ekanligini aniqlaydigan baholash jarayonida to'plangan ma'lumotlar. Kompetensiyaga asoslangan ta'limni baholashda dalillar to'g'ridan-to'g'ri o'quvchining malakasi va belgilangan standartni bajarish qobiliyatini namoyish qilish bilan bog'liq.

Informal ta'lim — aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin.

Malaka — shaxsning kasbiy faoliyatning muayyan turini bajarishga tayyorgarligini ifodalaydigan, ma'lumot to'g'risidagi tegishli hujjat bilan tasdiqlanadigan bilim, qobiliyat, mahorat va ko'nikmalar darajasi.

Kompetensiya — kasbiy vazifalarni sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va munosabatlar yig'indisidir.

Norasmiy ta'lim — ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir.

Kompetensiya asoslangan o'qitish — bu shaxslarga ish bilan bog'liq faoliyatni belgilangan standartlarga muvofiq bajarish uchun malakalarga ega bo'lism imkonini beruvchi o'qitish va baholashning tizimlashtirilgan tuzilmasidir.

Baholash — o'quvchining aniq bilim, ko'nikma va kompetensiya (malakaning bir qismi yoki to'liq malaka bilan bog'liq bo'lgan) qay darajada egallaganligini aniqlash jarayoni.

³Muvofiqlashtiruvchi uchrashuvlar ishtirokchilarining tavsiyasiga ko'ra, konsepsiya "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va boshqa amaldagi me'yoriy hujjatlardagi atamalar qo'llanilgan. Ba'zi atamalar mahalliy amaliyotga hali kiritilmasligi sababli Yevropa manbalaridan olinigan.

Ko'nikmalarni baholash va sertifikatlash — tizimli ma'lumot to'plash, ma'lum bir malaka uchun aniq mezonlarga muvofiq shaxs yoki guruhning malakasi darajasini baholash va hujjatlashtirishning jarayoni.

Sifatni ta'minlash — ta'lim va o'qitish (dasturlar mazmuni, o'quv reja, o'quv natijalarini baholash va tasdiqlash va boshqalar) manfaatdor tomonlar kutilayotgan sifat talablariga javob berishini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan rejallashtirish, amalga oshirish, baholash, hisobot berish va sifatni yaxshilash bilan bog'liq tadbirlar.

Ta'lim natijalari (learning outcomes) — o'quv jarayoni yakunida o'quvchi nimani bilishi, tushunishi va nimaga qodirligi haqidagi bayonlar bo'lib, ular bilim, ko'nikma va malakalar bilan belgilanadi.

Sertifikatsiya — bu shaxs tomonidan olingen kompetensiyalar majmui bo'lib, oldindan belgilangan standartga muvofiq vakolatli organ tomonidan baholangan va tasdiqlanganligini rasman tasdiqlovchi sertifikat berish jarayonidir.

Sertifikat — oldindan belgilangan standart bo'yicha baholanganidan keyin shaxsnинг yutuqlarini qayd etuvchi vakolatli organ tomonidan beriladigan rasmiy hujjat.

Mutaxassislik — malaka berish bilan yakunlanadigan muayyan kasbiy tayyorgarlik turining nomi.

Rasmiy ta'lim — davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingen akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejallashtirilgan ta'limdir.

1-BOB: O'ZBEKISTON KASBIY KOMPETENSIYALARINING VALIDATSYA QILISH TIZIMI

Validatsiya tiziminining yaratilishi va manfaatdor tomonlarning hissasi

Oldingi ta'lif qonuni (1997) norasmiy, informal ta'lif va hayot davomida ta'lif olish kabi tushunchalarni o'z ichiga olmagan. 2020-yilgacha "rasmiy sektordan tashqarida" olingen ta'lif natijalarini tan olishni nazarda tutuvchi hukumat hujjati yo'q edi. Bularning barchasi O'zbekiston ta'lif tizimiga zamonaviy yondashuvlarning joriy etilishida ilgari suruvchi masalalarni ancha murakkablashtirdi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistondagi ikki tashkilot – "YUNESKO" vakolatxonasi va "DVV International"ning O'zbekistondagi filiallari faoliyatida validatsiya masalalari yaq-qol ko'zga tashlanadi. Bu ikki tashkilot qo'shma loyihibar doirasida O'zbekistonda validatsiyani rivojlantirish muhimligini bir necha bor ko'tarib kelgan. Quyida ushbu tadbirdar ro'yxati va ularning maqsadlari keltirilgan:

Sana	Tadbir nomi	Validatsyaga aloqa/maqsad
2015	"Norasmiy ta'lif va informal o'rganish natijasida olingen kasbiy kompetensiyalarini tan olish va validatsiya qilish bo'yicha Yevropa tajribasi" mavzusiga bag'ishlangan seminar.	O'zbekiston va Markazi Osyo mintaqasining boshqa mamlakatlaridagi keng doiradagi mutaxassislar va manfaatdor tomonlar vakillarini kasbiy kompetensiyalarini tan olish va validatsiya qilish sohasidagi Yevropa Ittifoqi davlatlarining tajribasi bilan tanishtrish.
2016	"O'zbekistonda uzlusiz va sifatlri norasmiy ta'lifni yanada mustahkamlash bo'yicha Milliy strategiyani ishlab chiqishning ustuvor vazifalari" mavzusidagi ishlangan davra suhbati	Tadbirming yakuniy hujjatda tavsiyalardan biri quyidagi edi: "Ta'lifning barcha shakllari (rasmiy, norasmiy va informal) orqali erishilgan ta'lif natijalari va malakalarini tan olishni ta'minlash uchun Milliy malaka ramakalarini ishlab chiqish va amalga oshirish".
2017	"O'zbekistonda norasmiy ta'lif va informal o'rganish natijasida olingen kasbiy kompetensiyalarini tan olish va validatsya tizimlarini joriy etish istiqbollari" mavzusiga bag'ishlangan seminar	O'zbekistonning keng doiradagi mutaxassislar va manfaatdor tomonlar vakillarini norasmiy ta'lif, norasmiy o'rganish va amaliy faoliyat natijasida olingen kasbiy kompetensiyalarini tan olish va tasdiqlash sohasidagi Yevropa Ittifoqi davlatlarining tajribasi bilan tanishtrish, ishtiroychilarini O'zbekistonda ushbu sohada o'tkazilgan tahlil bo'yicha hisobot natijalari bilan tanishtrish, mamlakatda tan olish, validatsiya va akkreditatsiya mexanizmlarini yaratish bo'yicha mumkin bo'lgan zarur qadamlarni muhokama qilish.
2017-2018	"Hayot davomida ta'lif olish" submintaqaviy tadqiqoti	Tadqiqot doirasida O'zbekiston hisoboti tayyorlandi, unda alohida bo'lim oldingi tajribani tan olish, validatsiya va akkreditatsiya qilish bo'yicha so'rovrlarga bag'ishlandi. Submintaqaviy tadqiqot natijalari oflayn va onlayn formatlarda o'tkazilgan bir qator mintaqaviy tadbirdarda taqdim etildi.
2018	"O'zbekistonda hayot davomida ta'lif olishni rivojlantirish konsepsiysi" loyihasi taqdimotiga bag'ishlangan seminar	Konsepsiya loyihasi O'zbekistonda ilgari olingen bilim va ko'nikmalarni tan olish, validatsiya va akkreditatsiya qilishni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olgan.

Yuqoridagi tadbirlar shuni ko'rsatadiki, "YUNESKO"ning O'zbekistondagi vakolatxonasi va "DVV International" filiallari qaror qabul qiluvchilar o'rtasida xabardorlikni oshirish va tadqiqot o'tkazish orqali validatsiya masalalari bo'yicha milliy darajada turli targ'ibot ishlarini amalga oshirgan. Shu bilan birga, mavjud tajribani o'rganish jarayonida shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda validatsiya mexanizmlarini amalda qo'llash bo'yicha birorta ham holat kuzatilmagan.

Validatsiya uchun huquqiy baza va uning provayderlari

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalar milliy tizimi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori⁴ nafaqat validatsiya organlarning funksiyasi va vazifalari (Malakani baholash markazlari), balki validatsiya tartiblari/qoidalari ta‘riflovchi birinchi hujjat bo‘ldi.

Qaror bilan “Kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalar milliy tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi, unda Milliy malaka tizimining assosiy tushunchalari, assosiy tarkibiy qismlari, maqsad va vazifalari, Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi, Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi, Malakalarni baholash markazlari, shuningdek, ishsiz va band bo‘lmagan aholi uchun kasblar tayyorlash tartiblari, malaka imtihonlarini o‘tkazish tartibi, sifatni ta‘minlash bo‘yicha tasdiqlangan talablarga rioya etilishini nazorat qilish tushunchalariga ta‘rif berilgan.

Kompetensiyalarni baholash markazlari faoliyatining asoslari⁵

Kompetensiyalarni baholash markazi mustaqil yuridik shaxs yoki yuridik shaxsnинг tarkibiy bo‘linmasi sifatida tashkil etilgan kompetensiyalarni mustaqil baholash organi hisoblanadi.

Kompetensiyalarni baholash markazi kasb-hunarga o‘qitish markazlarida, kasbiy ta‘lim muassasalarida kasbga o‘qish, qayta o‘qish va malaka oshirishdan o‘tgan yoki ishlab chiqarish sharoitlarida yoxud mustaqil tayyorgarlik yo‘li bilan o‘qigan talabgorlarning kasb kompetensiyasini xolis va mustaqil baholash maqsadida tashkil qilinadi.

Kompetensiyalarni baholash markazi o‘z faoliyatini o‘zini o‘zi moliyalashtirish asosida amalga oshiradi.

Kompetensiyalarni baholash markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- *talabgorlarning, o‘zlashtirish usulidan qat‘i nazar, mehnat bozorida talab etilgan kasb kompetensiyalarini baholash;*
- *ishga qabul qilishda, kasb-lavozim tuzilmasida o‘sishda talabgorlarning kasb kompetensiyalari talablariga va kasb standartlariga mosligini tasdiqlash;*
- *kasb malakalari bo‘yicha normativ hujjatlar va standartlar bo‘yicha takliflar tayyorlash va ishlab chiqishda ishtirok etish;*
- *tegishli tarmoq/korxonada ishlovchi muayyan lavozimlarni egallab turgan xodimlarga nisbatan aniq va to‘g‘ri talablarni shakllantiruvchi har bir kompetensiya rivojlanishining mos shkalasi va aniq xulq indikatorlarini belgilagan holda kompetensiyalarning samarali modellarini ishlab chiqish va joriy etish;*
- *kasb kompetensiyalari va ishbilarmonlik sifatlarini rivojlantirishning korporativ dasturlarini ishlab chiqish.*

Kompetensiyalarni baholash markazining asosiy funksiyalari quyidagilar:

- *talabgorlar kompetensiyasini mustaqil va xolis baholash;*
- *keng va tor ixtisosliklar bo‘yicha ishchilarga malaka razryadlarini va mutaxassislarga malaka toifalarini berish;*
- *talabgorning mavjud kompetensiyasini belgilangan kasb standartlariga loyiqligini aniqlash;*
- *kasb malakalari bo‘yicha normativ hujjatlar va standartlarni ishlab chiqishda qatnashish.*

“Ahollining bandligi to‘g‘risida”gi Qonunda Malakani baholash markazlariga (81-modda), Malakani baholash markazlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish tartibi (82-modda), Malaka, bilim va ko‘nikmalarni baholashdan o‘tkazish tartibi (83-modda), Malaka, bilim va ko‘nikmalarni baholashdan o‘tkazish natijalariga (84-modda) tegishli moddalar ham kiritilgan.

⁴Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida kasbiy malaka, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (15.05.2020-yildagi 287-son):<https://lex.uz/docs/-4814154>

⁵Vakolatlarni baholash markazi hujjatlarda keyinchalik Malakalarni baholash markazi deb nomlana boshladi.

81-modda. Malakani baholash markazlari

Malakani baholash markazlari kasbiy malakasi, bilimi va ko'nikmalarini baholashdan o'tishni xohlovchi shaxslarning kasbiy malaka, bilim va ko'nikmalarini baholashdan o'tkazadi.

Malakani baholash markazlari mustaqil yuridik shaxs yoki yuridik shaxsning alohida tarkibiy bo'linmasi sifatida tashkil etiladi.

Malakani baholash markazlari quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- shtatida (o'rindoshlikka yo'l qo'yiladi) olyi ma'lumotli va ariza beruvchi malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashdan o'tkazishga talabgor bo'lgan yo'nalihsarning har biri bo'yicha kamida uch yillik amaliy ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek, Mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish respublika kurslaridan o'tgan kamida bir nafar xodim bo'lishi;
- o'z mulkida xo'jalik yuritish huquqi, operativ boshqarish huquqi asosida yoki boshqa qonuniy asosda moddiy-texnika bazasiga, shu jumladan, ariza beruvchi malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashdan o'tkazishga talabgor bo'lgan yo'nalihsarning har biri bo'yicha malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashdan o'tkazish uchun baholash vositalariga ega bo'lishi.

Malakani baholash markazlari:

- kasbiy malakasi, bilimi va ko'nikmalarini baholashdan o'tishni xohlovchi shaxslarga malaka, bilim va ko'nikmalarni baholash qoidalari hamda tartib-taomillari to'g'risida zarur axborot taqdim etadi;
- malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashni tashkil etadi hamda ishchilarga malaka razryadini va mutaxassislarga malaka toifasini berish bo'yicha imtiyonini va zarur bo'lganda, malaka sinov ishlarini o'tkazish orqali ularni kasbiy standartlar talablariga muvofiqligi jihatidan baholashdan o'tkazadi;
- malaka, bilim va ko'nikmalarni baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantiradi, Respublika kengashi tomonidan tasdiqlanadigan shakldagi malaka pasportini rasmiylashtiradi hamda beradi;
- berilgan malaka pasportlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Tasdiqlangan malakaga ega bo'lgan shaxslarning milliy reyestriga kiritadi;
- mehnat organlariga o'z faoliyati to'g'risida hisobotni taqdim etadi.

Oliy ma'lumotga ega bo'lgan va Mehnat organlari xodimlari malakasini oshirish respublika kurslarida malaka oshirish kursidan o'tgan shaxs malakani baholash markazining direktori bo'lishi mumkin.

Malakani baholash markazining tashkiliy tuzilmasiga majburiy tartibda ekspert malaka komissiyasi kiritilishi kerak.

Malakani baholash markazlarining faoliyati:

- muassislarning mablag'lari;
- malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashdan o'tkazganlik uchun kiritiladigan to'lov;
- kasba o'qitishga doir davlat buyurtmasi doirasida ajratiladigan mablag'lar;
- ichtiyorli xayriyalr hamda yuridik va jismoniy shaxslarning maqsadli badallari, homiylarning mablag'lari hamda qonunchilikda taqilanganmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.

Malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashdan o'tkazganlik uchun kiritiladigan to'lov miqdori malakani baholash markazlari tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Malakani baholash markazlari o'zi beradigan malaka pasportlarining fuqarolar vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun boradigan chet davlatlarda tan olinishi maqsadida malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashni amalga oshirishga vakolatli bo'lgan organlar yoki tegishli chet davlatlarning ish beruvchilari bilan hamkorlik bitimlari tuzadi⁶.

"Aholi bandligi to'g'risida"gi Qonun Malakalarni baholash markazini akkreditatsiya qilish tartiblarini ham tartibga soladi va unda asosiy organ sifatida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi belgilangan (82-modda). Qonunga ko'ra, kasbiy faoliyatning (kasbning) bir nechta turlari bo'yicha bitta Malakalarni baholash markazini akkreditatsiyadan o'tkazishga ruxsat etiladi⁶.

⁶O'zbekiston Respublikasining "Aholini bandligi to'g'risida"gi Qonuni:<https://lex.uz/docs/-5055690>

Akkreditatsiyadan o'tish uchun ariza beruvchi – malaka baholash markazi (keyingi o'rinnlarda – ariza beruvchi) quyidagi larni taqdim etadi:

- ✓ akkreditatsiya olish uchun ariza;
- ✓ Kompetensiyalarni baholash markazining shtatida kompetensiyani, malaka va ko'nikmalarni baholashga da'vo qilayotgan har bir yo'naliш bo'yicha va/yoki fuqarolik-huquqiy tavsifdagi shartnoma bo'yicha olib ma'lumotli mutaxassis(lar)ning mavjudligi haqidagi hujjalarni;
- ✓ Kompetensiyalarni baholash markazi kompetensiyani, malaka va ko'nikmalarni baholashga da'vo qilayotgan har bir yo'naliш bo'yicha baholash maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi xo'jalik yuritish, tezkor boshqaruv va boshqa qonuniy asoslarda mulk sifatida moddiy-texnika bazasiga ega ekanligini tasdiqlovchi hujjal(lar)ni taqdim etadi.

Malaka, bilim va ko'nikmalarni baholashni o'tkazish uchun zarur bo'lgan baholash vositalari hamda baholash usullari, shu jumladan, onlayn test sinovlari uchun foydalilaniladigan moddiy-texnika resurslari va dasturiy ta'minot O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan belgilanadi.

Malakani baholash markazlarini akkreditatsiya qilish yoki akkreditatsiya qilishni rad etish to'g'risidagi qaror Respublika kengashining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi tomonidan qabul qilinadi. Akkreditatsiya to'g'risidagi guvohnoma besh yil muddatga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"⁷gi 2020-yil 31-dekabrdagi 4939-son qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradigan Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha kengashi tashkil etildi. Unga boshqa vazifalar qatori "malaka va bilimlarni, nafaqat shaxs tomonidan olingen ta'lim, balki uning kasbiy tajribasi, ko'nikmalari hamda shaxsiy va ishbilarmonlik xususiyatlarini inobatga olgan holda tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikatsiya) qilishning moslashuvchan, shaffof va xolisona mexanizmlarini joriy etish" vazifasi yuklatildi⁷.

Mazkur qaror bilan Tarmoq kengashlariga "Norasmiy va informal o'qitishning natijalarini tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikatsiya) qilish tizimini shakllantirish, shu jumladan, malakalarni baholash markazlari faoliyatini tashkil qilish" vazifasi yuklangan hamda 2021-yil uchun yirik iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari huzuridagi korxonalarda Malaka baholash markazlari tashkil etish dasturi tasdiqlangan.

Vazirlar Mahkamasining "Kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁷gi 2021-yil 30-sentyabrdagi 606-son qarori hozirgi kunda Milliy malaka tizimini va uning asosiy ishtirokchilarini yanada rivojlantirishga qaratilgan eng dolzarb hujjal hisoblanadi. Unda Mehnat bozori tadqiqotlari instituti, Tarmoq kengashlari va Malakani baholash markazlari to'g'risidagi namunaviy nizomlar tasdiqlandi. Ushbu hujjal va yuqoridaq asosiy hujjalar asosida validatsiya uchun mas'ul bo'lgan organlarning quyidagi tuzilmasini chizish mumkin:

⁷O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Malakani baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"⁷gi qarori (31.12.2020-yildagi PQ-4939-son): <https://lex.uz/docs/-5203490>

Kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish bo'yicha kengash

- ✓ validatsiya va akkreditatsiya (sertifikatsiya) qilishning moslashuvchan, shaffof va xolisona mexanizmlarini joriy etish

Mehnat bozori tadqiqotlari instituti

Tarmoq kengashlari

- | | |
|--|---|
| <p>✓ norasmiy va informal o'qitishning natijalarini tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikat-lash) qilish tizimini shakllantirish, shu jumladan, malakalarni baholash markazlari faoliyatini tashkil qilishda ishtirok etadi;</p> <p>✓ kompetensiyalarni baholash bo'yicha faoliyat bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar registrini hamda tasdiqlangan malakaga ega shaxslar milliy reyestri ni joriy etadi, yuritadi va rivojlantirishni tashkil etadi;</p> <p>✓ tasdiqlangan malakaga ega shaxslarni haqiqatda ushbu malakaga muvofiqligi darajasini o'ranga va tahlil qiladi.</p> | <p>✓ norasmiy va informal o'qitishning natijalarini tan olish, validatsiya va akkreditatsiya (sertifikat-lash) qilish tizimini shakllantirish, shu jumladan, malakalarni baholash markazlari faoliyatini tashkil qilish;</p> <p>✓ malakalarni baholash markazlari (MBM) vazifalarini bajarish uchun tashkilotlarni tanlab olish, ularga malakalarni xolis baholash bo'yicha vakolatlar berish hamda tanlash va vakolatlar berish jarayonida ular tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirishni;</p> <p>✓ har bir malakalarni baholash markazi uchun malakalar xolis baholanadigan kasb malaka-sining nomini belgilashni;</p> <p>✓ tegishli malakalar bo'yicha baholash vositalarini ishlab chiqish va ularning ekspertizadan o'tkazilishini;</p> <p>✓ malakalarni baholash markazlari faoliyatini nazorat qilishni;</p> <p>✓ malakalarni baholash natijalariga aloqador shikoyatlarni ko'rib chiqish bo'yicha apellyatsiya komissiyasini tuzish va uning faoliyatini yo'liga qo'yishni;</p> |
|--|---|

XULOSALAR

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, O'zbekistonda Milliy malaka doirasini yaratish bo'yicha samarali qadamlar qo'yildi degan xulosaga kelish mumkin. Uning muhim tarkibiy qismlaridan biri validatsiya tizimini hisoblash mumkin. O'zbekistonda validatsiya uchun qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza yaratildi, shuningdek, validatsiya uchun mas'ul institutlar tashkil etildi.

Shu bilan birga, validatsiya tizimi shakllanish bosqichida, kuchli va zaif tomonlariga ega. Quyidagi SWOT tahlil jadvali buni ko'rsatadi:

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
<ul style="list-style-type: none">■ <i>Qulay qonunchilik bazasi;</i>■ <i>Milliy malaka ramkasining mavjudligi;</i>■ <i>Validatsiya uchun mas'ul muassasalar yaratilgan.</i>	<ul style="list-style-type: none">■ <i>Ilg'or tajribalarni hisobga oladigan milliy validatsiya tamoyillari (shu jumladan, yo'rinoqlar) ishlab chiqilmagan;</i>■ <i>Validatsiya bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi;</i>■ <i>MBMlarda validatsiyani amaliy qo'llash holatlari mavjud emas;</i>■ <i>Validatsiya uchun moliyalashtirish mexanizmlarining zaifligi;</i>■ <i>Validatsiya uchun ma'lumotni qo'llab-quvvatlash tizimining zaifligi;</i>■ <i>Validatsiya masalalari bo'yicha jamoatchilik uchun maslahatlarning yo'qligi.</i>
Imkoniyatlar	Tahdidlar
